O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 2 - fevral 39-8-109-Q/22 Angor tuman hokimligi

Tumanda 2022- yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9- martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan

mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart - 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr - 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stantsiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 18-fevraldagi Q-117-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Angor yog‘dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Sh.Mirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **SH.B.ABDULLAYEV**

Ангор туман ҳокимининг
2022 йил 2 февралдаги
39-8-109-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi :

E..Jo‘raev		Angor tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, leytenant

Komissiya raisi o‘rinbosari:

Sh.Mirzaev	-	Angor tuman hokimining o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

M.Normo‘minov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXG ma’muriy amaliyot inspektori, serjant

Komissiya a’zolari:

E.Badalov	-	Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi Angor tumaniga birikitirlgan inspektori
R.Shomurodov	-	Tuman avtomotohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati mutaxassisi, (*kelishuvga asosan)*
G.Avazov	-	“O‘zbekinvest” EISK sug‘urta Angor tuman bo‘limi bo‘limi mutaxassisi *(kelishuvga asosan)*

Ангор туман ҳокимининг
2022 йил 2 февралдаги
39-8-109-Q/22-сон қарорига
2-илова

Tuman hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1.	Elektr tarmoqlari korxonasi	Dushanba-Shanba	01.03.2022	Tashkilot garaji	5
2.	“MKT” Vatanparvar	Dushanba-Shanba	02.03.2022	Tashkilot garaji	10
3.	Avtoyo‘l boshqarmasi	Dushanba-Shanba	03.03.2022	Tashkilot garaji	15
4.	DSEM	Dushanba-Shanba	04.03.2022	Tashkilot garaji	4
5.	Angor Argalet MChJ	Dushanba-Shanba	05.03.2022	Tashkilot garaji	2
6.	Tuman DSI	Dushanba-Shanba	06.03.2022	Tashkilot garaji	1
7.	Qishloq xo‘jaligi kolleji	Dushanba-Shanba	08.03.2022	Tashkilot garaji	2
8.	Pedagogika kolleji	Dushanba-Shanba	09.03.2022	YPX maskani	2
9.	Maishiy xizmat kolleji	Dushanba-Shanba	10.03.2022	Tashkilot garaji	2
10.	Haydovchi Tolmas ziyo UK	Dushanba-Shanba	11.03.2022	YPX maskani	11
11.	Tuman xokimiyati	Dushanba-Shanba	12.03.2022	Tashkilot garaji	14
12.	Kushon propan x/f	Dushanba-Shanba	13.03.2022	YPX maskani	4
13.	Yangi xayot yo‘li	Dushanba-Shanba	15.03.2021	Tashkilot garaji	2
14.	Inkasatsiya bo‘limi	Dushanba-Shanba	16.03.2022	YPX maskani	3
15.	Said Nosirxon f/x	Dushanba-Shanba	17.04.2022	YPX maskani	1
16.	Shaxstrans Angor MChJ	Dushanba-Shanba	18.03.2022	YPX maskani	38
17.	Amudaryo Angor MChJ	Dushanba-Shanba	19.03.2022	YPX maskani	12
18.	Amudaryo Trans Angor kmj	Dushanba-Shanba	20.03.2022	YPX maskani	18
19.	Jayxun Angor AYoKSh	Dushanba-Shanba	22.03.2022	YPX maskani	2

20.	Tallashqon invest MChJ	Dushanba-Shanba	23.03.2022	YPX maskani	6
21.	Moliya bo‘lmi	Dushanba-Shanba	24.03.2022	YPX maskani	1
22.	Azdorsoy Termiz x/f	Dushanba-Shanba	25.04.2022	YPX maskani	2
23.	Akmal x/f	Dushanba-Shanba	26.03.2022	YPX maskani	2
24.	Davronqul Polvon x/f	Dushanba-Shanba	27.03.2022	YPX maskani	2
25.	Veterenariya	Dushanba-Shanba	29.03.2022	YPX maskani	1
26.	Obodonlashtirish bo‘limi	Dushanba-Shanba	30.03.2022	YPX maskani	4
27.	Davr Trans Samo MChJ	Dushanba-Shanba	31.03.2022	YPX maskani	15
28.	Olim Xudoynazarov	Dushanba-Shanba	01.04.2022	YPX maskani	14
29.	Mexrangiz Laylo	Dushanba-Shanba	02.04.2022	YPX maskani	5
30.	Erein Grant MChJ	Dushanba-Shanba	03.04.2022	YPX maskani	4
31.	Darband Qurilish x/k	Dushanba-Shanba	05.04.2022	YPX maskani	4
32.	Xushboq Ali Angor x/k	Dushanba-Shanba	03.04.2022	YPX maskani	20
33.	DT XalqBank Angor filiali	Dushanba-Shanba	04.04.2022	YPX maskani	4
34.	Angor shox bekat MChJ	Dushanba-Shanba	05.04.2022	YPX maskani	14
35.	Angor avto karvon MChJ	Dushanba-Shanba	06.04.2022	YPX maskani	44
36.	Lobar Angor x/k	Dushanba-Shanba	07.04.2022	YPX maskani	2
37.	Temir buyumlari MChJ	Dushanba-Shanba	08.04.2022	YPX maskani	1
38.	Soxil Shamoli MChJ	Dushanba-Shanba	09.04.2022	YPX maskani	2
39.	Angor bunyodkorlari x/k	Dushanba-Shanba	10.04.2022	YPX maskani	4
40.	Oyruz Angor x/k	Dushanba-Shanba	12.04.2022	YPX maskani	3
41.	Ibroximbek Yaxyo	Dushanba-Shanba	13.04.2022	YPX maskani	2
42.	Vali MChJ	Dushanba-Shanba	14.04.2022	YPX maskani	14
43.	Xusniddin Chori	Dushanba-Shanba	15.04.2022	YPX maskani	3
44.	Angor halq ta’limi	Dushanba-Shanba	16.04.2022	Tashkilot garaji	4

45.	Azizbek Sherobod eksport x/f	Dushanba-Shanba	17.04.2022	Tashkilot garaji	9
46.	HUASHEN SILKWORM PRO	Dushanba-Shanba	20.04.2022	Tashkilot garaji	14
47.	Tanovor Surxon MChJ	Dushanba-Shanba	22.04.2022	Tashkilot garaji	10
48.	Surxon ekspert savdo	Dushanba-Shanba	22.04.2022	Tashkilot garaji	1
49.	Xushnud-Jaxon Parranda MChJ	Dushanba-Shanba	23.04.2022	Tashkilot garaji	1
50.	Zumrad XSD	Dushanba-Shanba	24.04.2022	Tashkilot garaji	1
51.	Muxammadsodiq Andijon x/k	Dushanba-Shanba	26.04.2022	Tashkilot garaji	1
52.	Angor Elegant x/k	Dushanba-Shanba	27.04.2022	Tashkilot garaji	1
53.	Angor Xamkor qurilish MChJ	Dushanba-Shanba	28.04.2022	Tashkilot garaji	4
54.	Boshqalar	Dushanba-Shanba	28.04.2022	YPX maskani	174
55.	**Jami**	**0**	**0**	**0**	**541**